



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH  
MILLIY AGENTLIGI**

# **O'RTA MAXSUS TA'LIM TASHKILOTLARINI KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITASIYASIDAN**

O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA

**QO'LLANMA**



[www.nqaae.uz](http://www.nqaae.uz)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**O'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini  
KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN  
o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha  
QO'LLANMA**

Toshkent-2026

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini (bundan buyon matnda ta'lim tashkiloti deb yuritiladi) kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etish maqsadida tavsiyaviy uslubiy qo'llanma sifatida ishlab chiqilgan.

Qo'llanma ta'lim tashkilotlarini davlat ta'lim standartlari va kompleks davlat akkreditatsiyasi yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga muvofiqligini baholash jarayoniga tayyorlash hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, qo'llanmada ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida har bir baholash yo'nalishi, mezon va indikator kesimida tahlil qilish, zarur ma'lumotlarni shakllantirish, baholash natijalarini asoslovchi tegishli dalillar va hujjatlarni aniqlash tartibi bayon etilgan.

Mazkur qo'llanma ta'lim tashkilotlarining rahbarlari, ta'lim sifatini ta'minlash bo'linmalari mas'ullari va pedagog xodimlari uchun ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorlashda amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                               |            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KIRISH .....</b>                                                                                                                           | <b>5</b>   |
| <b>ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ATAMALAR .....</b>                                                                                                  | <b>7</b>   |
| <b>KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI<br/>RASMIYLASHTIRISH .....</b>                                                              | <b>8</b>   |
| <b>ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH .....</b>                                                                                         | <b>8</b>   |
| <b>BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI BO'YICHA<br/>NATIJALARNI HISOBLASH .....</b>                                            | <b>10</b>  |
| <b>ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH .....</b>                                                                                         | <b>11</b>  |
| <b>TA'LIM TASHKIOTLARINI KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN<br/>O'TKAZISHDA BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA<br/>INDIKATORLARI .....</b> | <b>13</b>  |
| I. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi .....                                                                                             | 13         |
| II. Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi.....                                                                                                | 21         |
| III. O'quvchilar faoliyati yo'nalishi .....                                                                                                   | 30         |
| IV. O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi .....                                                                                           | 41         |
| V. Inson resurslari yo'nalishi .....                                                                                                          | 50         |
| VI. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi .....                                                                                         | 59         |
| VII. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi .....                                                                                                  | 73         |
| <b>ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA .....</b>                                                                                        | <b>86</b>  |
| <b>ICHKI BAHOLASH HISOBOTI UCHUN NAMUNAVIY JADVALLAR .....</b>                                                                                | <b>87</b>  |
| <b>FOYDALANILGAN MANBALAR .....</b>                                                                                                           | <b>99</b>  |
| <b>QAYDLAR UCHUN .....</b>                                                                                                                    | <b>100</b> |

**QO'LLANILGAN QISQARTMA SO'ZLAR**

|         |                                                    |
|---------|----------------------------------------------------|
| ARM     | Axborot resurs markazi                             |
| AKT     | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari             |
| DTS     | Davlat ta'lim standarti                            |
| LMS     | Ta'limni boshqarish tizimi                         |
| YDA     | Yakuniy davlat attestatsiyasi                      |
| EMIS AL | O'rta maxsus ta'lim tashkilotida axborot tizimlari |

## KIRISH

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki baholashni samarali tashkil etishga uslubiy jihatdan ko'mak berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 19-dekabrda "O'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida" 7-son buyrug'i (ro'yxat raqami: 3737) bilan tasdiqlangan ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarga tegishli ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim qilishga uslubiy tavsiyalar beriladi.

Qo'llanma ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonini yagona talablar asosida tashkil etish, ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirish, asoslantiruvchi hujjatlarni yig'ish va tashqi baholash jarayoniga samarali tayyorlash yuzasidan uslubiy yordam beradi.

Shuningdek, ichki baholash hisobotini tayyorlash bo'yicha yagona yondashuvlarga rioya qilinishini ta'minlash tashqi baholash jarayonida ekspert komissiyalarining ish samaradorligini oshiradi.

Ichki baholash hisoboti tegishli baholash yo'nalishlari va mezonlariga muvofiq ma'lumotlarni tahlil qilishga bag'ishlangan qismlar va boblardan iborat tahliliy ma'lumotnoma shaklida tayyorlanadi.

Ichki baholash hisobotidan ekspert komissiyalari tashqi baholash jarayonida to'liq ma'lumot olish, shuningdek, tegishli ta'lim tashkiloti (dasturi)ni sifatini baholash uchun foydalanadi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash hisobotini ma'muriyati, pedagoglari, kamida bir nafar o'quvchisi, shuningdek, ish beruvchilar va/yoki ijtimoiy hamkorlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzgan holda tayyorlashi mumkin.

Ichki baholash hisobotini tayyorlashda:

- mazkur qo'llanmada belgilangan ketma-ketlikda shakllantirish;
- har bir berilgan hujjat va ma'lumotlarni aniq, tushunarli va dalillar bilan asoslantirish;
- davlat tili qoidalari va talablariga amal qilish;
- rasmiy doirada keng foydalaniladigan so'z va atamalarni qo'llash;

- istiqbolli rejalar, loyihalar va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatish;
- har bir baholash indikatori bo'yicha qisqa, aniq hamda dalillarga asoslangan ma'lumotlarni kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) davlat akkreditatsiyasini o'tkazish bo'yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

## ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ATAMALAR

Ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va qonunosti hujjatlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan asosiy tushunchalar va atamalardan foydalanilishi shart.

Shuningdek, kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning ichki baholash hisobotini shakllantirish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorida va ushbu qo'llanmada qo'llanilgan asosiy tushunchalar hamda atamalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Quyidagi tushunchalar va atamalar davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida keng qo'llaniladi:

**davlat akkreditatsiyasi** — ta'lim tashkiloti faoliyati davlat ta'lim standartlari (talablari) va ta'lim dasturlariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan kompleks yoki maxsus davlat akkreditatsiyasini o'z ichiga oluvchi jarayon;

**baholash yo'nalishi** — davlat akkreditatsiyasi doirasida sifat va samaradorlikni baholash uchun belgilangan asosiy yo'nalishlar majmui bo'lib, boshqaruv, ta'lim sifati, o'quv jarayoni, inson resurslari, ta'lim oluvchilar faoliyati hamda moddiy-texnik baza kabi yo'nalishlarni qamrab oladi;

**mezon** — muayyan baholash yo'nalishida ta'lim tashkiloti (dasturi)ning sifatiga qo'yiladigan minimal talablar va standartlar majmui;

**indikator** — belgilangan mezon bajarilishini aniq, o'lchab bo'ladigan va asoslantiruvchi dalillar bilan tasdiqlanadigan ko'rsatkich;

**asoslantiruvchi dalillar** — mezon yoki indikatorlarga tegishli hujjatlar, ma'lumotlar, statistika, foto/video materiallar yoki boshqa aniq asoslar;

**ichki baholash hisoboti** — ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha tayyorlanadigan hujjat bo'lib, ta'lim tashkilotining kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga mosligi haqidagi tahlillar, dalillar va xulosalarni o'z ichiga oladi.

## KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH

Ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizalar Agentlikning ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish va reytingini yuritish bo'yicha **"[akkreditation.nqaae.uz](http://akkreditation.nqaae.uz)"** axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizani shakllantirish, qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilish va ularni ko'rib chiqish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida" nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ta'lim tashkilotining qonuniy vakili yoki ariza beruvchi belgilangan talablar asosida ariza topshirish, yig'implarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish, Agentlik va ta'lim tashkiloti o'rtasida shartnomani rasmiylashtirish, ekspert komissiyasi (joyiga chiqqan holda) akkreditatsiya jarayonini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga hamda ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim qilishga mas'ul hisoblanadi.

### ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisobotida davlat akkreditatsiya mezonlari asosida ta'lim tashkiloti (dasturi)ni dalillarga tayangan holda real holatini tahlil qilish, baholash va uni takomillashtirish choralarini belgilaydi va unda keltirilgan ma'lumotlar ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim tashkiloti (dasturlari)ni tashqi baholash jarayonlarida foydalaniladi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisoboti davlat akkreditatsiyasi mezonlari asosida ta'lim tashkiloti (dasturi)ning kuchli va takomillashtirish lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash, ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga qaratilgan xulosa va takliflarni shakllantirish, shuningdek, kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tish uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini tayyorlash maqsadida ishlab chiqiladi.

Ichki baholash hisoboti amaldagi kompleks davlat akkreditatsiyasi baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga mufoviq bo'lishi shart. Bunda, har bir indikator bo'yicha amaldagi holat, dalillar va xulosalar aniq yoritilishi lozim.

Shuningdek, ichki baholash kompleks davlat akkreditatsiyasi o'tkaziladigan o'quv yilida o'tkazilishi hamda ta'lim tashkilotining oxirgi ikki yillik hamda davlat

akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan o'quv yilidagi faoliyati tahlilini qamrab olishi lozim.

### **E'TIBOR BERING!!!**

Ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirishda mazkur qo'llanmaning **“Ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o’tkazishda baholash yo’nalishlari, mezonlari va indikatorlari”** bo'yicha tavsiya etilgan savollardan hamda asoslovchi dalillar (hujjatlar) ro'yxatidan foydalangan holda aniq va asosli ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Shuningdek, kiritilgan ma'lumotlar va ularni asoslovchi dalillar (hujjatlar) elektron shaklda platformaga yuklanishi shart.

**Ichki baholash hisobotiga kiritilgan asoslanmagan hamda umumiy bayon etilgan ma'lumotlar hisobot sifatida qabul qilinmaydi.**

Ichki baholash hisoboti rasmiy hujjatlar, ma'lumotlar (statistika), so'rovnoma va fikr-mulohazalar tahlili bilan dalillarga asoslanishi (Evidence-based approach) shart.

Hisobotda haqqoniylik va tanqidiy yondashuv ta'minlanishi uchun real holat aks ettirilishi, sun'iy “yuqori baholash”dan holi bo'lish, kamchiliklar ochiq va aniq ko'rsatilishi, sabablar tahlil qilinib, aniq yechimlar taklif qilinishi lozim.

Hisobotni milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'un holda akkreditatsiya mezonlari, shuningdek, xalqaro yondashuvlar (ISO 21001) bilan aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning dolzarbligini oshirish uchun o'quvchilar, pedagoglar, qoshida (huzurida) o'rta maxsus ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirlik, idora yoki oliy ta'lim tashkilotlari, ish beruvchilar, bitiruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart hisoblanadi.

Hisobot ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanishi va elektron (zarur hollarda qog'oz) shaklda saqlanishi hamda Agentlikka tayyor holatda (platforma orqali) taqdim etilishi lozim.

## BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH

Baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlarga bo'linadi hamda "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy mezonlarga bo'linadi hamda har bir mezon "muvofiq", "qisman muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlarining muvofiqligi majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha quyidagi tartibda aniqlanadi:

**60 foiz va undan ortiq** indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq";

**50 foizdan 60 foizgacha** indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "qisman muvofiq";

**50 foizgacha** indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) "muvofiq emas" deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb e'tirof etiladi. Bunda har bir baholash yo'nalishi quyidagi shartlar bajarilganda "muvofiq" deb baholanadi:

majburiy mezonlarning barchasi "muvofiq" deb baholanganda;

umumiy mezonlarning ko'pi bilan ikkitasi "qisman muvofiq" deb baholanganda;

"muvofiq emas" deb baholangan mezonlar mavjud bo'lmaganda.

Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" deb e'tirof etilganda, ushbu ta'lim tashkiloti **"davlat akkreditatsiyasidan o'tdi"** deb, "muvofiq emas" deb e'tirof etilganda esa **"davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi"** deb qaror qabul qilinadi.

## ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH

Ta'lim sifatini tashqi baholash uchun Agentlik tomonidan ekspert komissiyasi tashkil etiladi. Ekspert komissiyasi ta'lim yo'nalishi xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ekspert komissiyasi tarkibi ta'lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul xodimlari, ish beruvchi korxona (tashkilot)larining mutaxassisleri, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda o'quvchilar orasidan shakllantiriladi. Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlar ham jalb etilishi mumkin.

Ekspert komissiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish hamda tashqi baholashni amalga oshirish;

ta'lim tashkilotidagi ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari (talablari), akkreditatsiya mezonlari va ta'lim dasturlariga muvofiqqligini baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda tashqi baholash natijalari yuzasidan hisobotni tayyorlash va Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etish.

Ichki baholash hisoboti mazkur **qo'llanmaning ilovasida keltirilgan namuna** asosida shakllantiriladi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash natijasida shakllantirilgan hisobot va unga tegishli materiallarni elektron va (yoki) qog'oz shaklida tasdiqlangan holda, tashqi baholash boshlanishidan kamida **ikki oy oldin** Agentlikka taqdim etadi.

Ekspert komissiyasi ichki baholash hisobotini o'rganadi va undan tashqi baholash jarayonida foydalanadi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim tashkilotini tashqi baholash joyiga chiqqan holda **besh ish kunidan oshmagan muddatda** o'tkaziladi.

**Tashqi baholash jarayonida ichki baholash hisobotida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi, shuningdek, belgilangan muddatlarda hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim qilinmasligi yoki kamchiliklarning bartaraf etilmasligi davlat akkreditatsiyasidan o'tkazmaslik uchun asos bo'ladi.**

Dastlabki hisobot tashqi baholash natijalari asosida ekspert komissiyasi tomonidan tayyorlanadi va hisobotning xulosasi Agentlik orqali ta'lim tashkilotiga taqdim qilinadi.

Ta'lim tashkiloti dastlabki hisobot bo'yicha asoslantirilgan taklif va e'tirozlarini Agentlikka **uch ish kuni ichida** rasman taqdim etadi. Taqdim etilgan

taklif va e'tirozlarni tahlil qilgan holda ekspert komissiyasi tomonidan yakuniy hisobot tayyorlanadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ichki baholash hisoboti asosida ekspert komissiyasi joyiga chiqmasdan, masofaviy shaklda tashqi baholashni amalga oshirishi mumkin.

## TA'LIM TASHKILOTLARINI KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISHDA BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI

O'rta maxsus ta'lim tashkilotlari kompleks davlat akkreditatsiyasidan **7 ta** yo'nalish, **36 ta** mezon hamda **193 ta** indikator asosida baholanadi.

**Majburiy mezon va indikatorlar (\*) bilan belgilangan.**

### I. TASHKILIY-BOSHQARUV FAOLIYATI YO'NALISHI

***Izoh:** ta'lim tashkilotining malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan rivojlantirish rejasi, muvofiqlashtirish, boshqarish va nazorat jarayonlari samaradorligi baholanadi.*

**1-MEZON. Ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani**

***Izoh:** ta'lim tashkilotida faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, ta'lim sifatini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarga moliyaviy resurslar taqsimlangan, ularning natijadorligini monitoring va tahlil qilishga qaratilgan boshqaruv tizimi baholanadi.*

#### 1.1. INDIKATOR

O'rta maxsus ta'lim tashkilotining faoliyatini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida o'rta maxsus ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasiga (strategik rejasi, missiyasi, strategiyasi) (bundan buyon matnda rivojlantirish rejasi deb yuritiladi) muvofiq moliyaviy resurslarni maqsadli boshqarish va taqsimlash tizimi yo'lga qo'yilgan

***Yordamchi savollar:***

❖ Ta'lim tashkilotida moliyaviy resurslarni maqsadli yo'naltirish va taqsimlash qanday amalga oshirilgan?

❖ Moliyaviy resurslarni maqsadli taqsimlash va yo'naltirish ta'lim tashkilotining faoliyatini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini oshirishga qanday ta'sir qilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Xarajatlar smetasi;
- ✓ Moliyaviy hisobotlar.

#### 1.2. INDIKATOR

Moliyaviy resurslar o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish hamda moddiy-texnik baza va infratuzilmani rivojlantirish maqsadlariga muvofiq ravishda taqsimlangan

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Ajratilgan mablag'lar bino-inshootlar va o'qitish vositalarini yaxshilashga qanday yo'naltirilgan?
- ❖ Ajratilgan mablag'lar o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishga qanday ta'sir qilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Xarajatlar smetasi;
- ✓ Moliyaviy hisobotlar.

**1.3. INDIKATOR**

**Moliyaviy boshqaruv jarayoni yo'lga qo'yilgan hamda yillik moliyaviy reja tasdiqlangan va ijrosi amalga oshirilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Moliyaviy boshqaruv jarayoni qanday yo'lga qo'yilgan?
- ❖ Yillik moliyaviy reja qanday tartibda tasdiqlangan hamda uning ijrosi qanday ta'minlangan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Xarajatlar smetasi;
- ✓ Moliyaviy hisobotlar.

**1.4. INDIKATOR**

**Yillik moliyaviy rejada ta'lim sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan mablag'lar maqsadli va samarali sarflangan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Yillik moliyaviy rejadagi mablag'lar pedagoglarni rag'batlantirish, bino-inshootlarni ta'mirlash, AKT vositalari hamda o'quv adabiyotlarini yangilash kabi masalalar uchun qanday sarflangan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Yillik moliyaviy hisobotlar;
- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidagi indikatorni asoslovchi qism (bundan buyon matnda Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma deb yuritiladi).

**1.5. INDIKATOR**

**Yillik moliyaviy rejaning ijrosi bo'yicha muntazam monitoring va tahlil amalga oshirilgan hamda moliyaviy resurslardan foydalanish yuzasidan qarorlar monitoring va tahlil natijalari asosida qabul qilingan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Mablag'lardan foydalanish va yillik moliyaviy rejaning ijrosi qanday davriylikda va qaysi tartibda monitoring hamda tahlil qilingan?
- ❖ Pedagogik kengashda mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi yuzasidan qarorlar qanday tartibda qabul qilingan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Yillik moliyaviy hisobotlar;
- ✓ Buyruq va Pedagogik kengash bayonnomalaridan ko'chirma.

**2-MEZON. Ta'lim tashkilotida Pedagogik kengash faoliyati yo'lga qo'yilgani va uning samaradorligi\***

***Izoh:** ta'lim tashkilotining ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarni qo'llab-quvvatlash va tashkilot rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv kengash nizomi, vakolatlari, faoliyati va samaradorligi baholanadi.*

### **2.1. INDIKATOR**

**Pedagogik kengashning ish rejasi va nizomi, shu jumladan vakolatlari, vazifalari va ish yuritish tartibi tasdiqlangan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Pedagogik kengashning ish rejasi va nizomi qanday tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan?
- ❖ Pedagogik kengashning ish rejasidagi vazifalar qanday tartibda belgilangan va ijrosi qanday ta'minlangan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Pedagogik kengash nizomi;
- ✓ Pedagogik kengashning ish rejasi.

### **2.2. INDIKATOR**

**Pedagogik kengashning yig'ilishlari muntazam o'tkazilgan hamda yig'ilish qarorlari asosida chora-tadbirlar rejaları ishlab chiqilgan va ijrosi nazorat qilingan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Pedagogik kengashning yig'ilishlari qanday davriylikda o'tkazilgan?

❖ Pedagogik kengash yig'ilishlarida qabul qilingan qarorlar asosida qanday chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan?

❖ Pedagogik kengash qarorlari asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejalari ijrosi qanday monitoring qilingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Pedagogik kengash bayonnomalari;
- ✓ Chora-tadbirlar rejasi;
- ✓ Chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha ma'lumotlar.

### **2.3. INDIKATOR**

**Pedagogik kengash qarorlarini qabul qilishda qoshida (huzurida) o'rta maxsus ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirlik, idora yoki oliy ta'lim tashkilotining (bundan buyon matnda yuqori turuvchi tashkilot deb yuritiladi) mas'ullari, pedagoglar va soha mutaxassislarining taklif va fikr-mulohazalari inobatga olingan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Pedagogik kengashda yuqori turuvchi tashkilot mas'ullari, pedagoglar va soha mutaxassislarining ishtiroki qanday ta'minlangan?

❖ Pedagogik kengash qarorlarini qabul qilishda yuqori turuvchi tashkilot mas'ullari, pedagoglar va soha mutaxassislarining taklif hamda fikr-mulohazalari qanday masalalarda inobatga olingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Pedagogik kengash bayonnomalaridan ko'chirma.

### **2.4. INDIKATOR**

**Pedagogik kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslardan samarali va maqsadli foydalanish hamda o'rta maxsus ta'lim tashkilotini rivojlantirish maqsadlari uchun yo'naltirilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Pedagogik kengashda pedagoglarni rag'batlantirish uchun qanday qarorlar qabul qilingan?

❖ Pedagogik kengashda ta'lim tashkilotini rivojlantirish uchun mablag'lar qanday maqsadlarda yo'naltirilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

## 2.5. INDIKATOR

Pedagogik kengash faoliyatiga oid ma'lumotlar ochiqlik, hisobdorlik va shaffoflik tamoyillariga muvofiq jamoatchilikka taqdim etib borilgan

*Yordamchi savollar:*

❖ Pedagogik kengash faoliyatiga oid ma'lumotlar ta'lim tashkilotining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda qanday tartibda e'lon qilib borilgan?

*Asoslantiruvchi hujjat (lar):*

✓ E'lon qilingan materiallar (skrinshot yoki havola).

**3-MEZON. Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani\***

*Izoh: ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi ishlab chiqilganligi, uni amalga oshirish uchun zarur resurslar mavjudligi, shuningdek, jamoatchilik uchun ochiqligi va samarali monitoringi yuritilishi holati baholanadi.*

### 3.1. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasi tasdiqlangan hamda o'rta maxsus ta'lim tashkilotini rivojlantirishning maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas'ul ijrochilar belgilangan\*

*Yordamchi savollar:*

❖ Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi qanday tartibda ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan?

❖ Ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasida strategik reja va missiyasi qanday aks ettirilgan?

❖ Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasida maqsadlar va vazifalar, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari hamda mas'ul ijrochilar qanday belgilangan?

*Asoslantiruvchi hujjat (lar):*

✓ Tasdiqlangan rivojlantirish rejasi.

### 3.2. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun o'rta maxsus ta'lim tashkilotidagi barcha tarkibiy bo'linmalarning (kafedralarning, bo'limlarning) yillik ish rejalari tizimli ravishda ishlab chiqilgan

*Yordamchi savollar:*

❖ Tarkibiy bo'linmalarning yillik ish rejalari ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasiga maqsad va vazifalari bilan uyg'unligi qanday ta'minlangan?

❖ Tarkibiy bo'linmalar yillik ish rejalarining bajarilishi qanday monitoring qilingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Tarkibiy bo'linmalarning yillik ish rejalari.

### 3.3. INDIKATOR

**Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan hamda ularning taqsimoti rivojlantirish rejasidagi maqsadlar va vazifalar bilan uyg'unlashtirilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslarining taqsimoti rivojlantirish rejasida belgilangan maqsad va vazifalar bilan qanday uyg'unlashtirilgan?

❖ Ajratilgan resurslardan foydalanish samaradorligi qanday monitoring va tahlil qilingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Xarajatlar smetasi;

✓ Shtatlar jadvali;

✓ Tasdiqlangan rivojlantirish rejasiga.

### 3.4. INDIKATOR

**Rivojlantirish rejasining monitoringi natijalari hamda yuqori turuvchi tashkilot mas'ullari, pedagoglar, o'quvchilar, bitiruvchilar, shuningdek ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning taklif va fikr-mulohazalari asosida rivojlantirish rejasini takomillashtirish choralari ko'rilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Rivojlantirish rejasining monitoringi va tahlil natijalari qanday amalga oshirilgan?

❖ Rivojlantirish rejasining ijrosini ta'minlashda yuqori turuvchi tashkilot mas'ullari, pedagoglar, o'quvchilar, bitiruvchilar, shuningdek ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning taklif va fikr-mulohazalari qanday o'rganilgan?

❖ O'rganish natijasida rivojlantirish rejasini takomillashtirishning qanday choralari ko'rilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Monitoring va tahliliy ma'lumotlar.

### 3.5. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasining ijrosi hamda natijalari ochiq va shaffof tarzda jamoatchilikka e'lon qilib borilgan

*Yordamchi savollar:*

- ❖ Rivojlantirish rejasining ijrosi va erishilgan natijalar ta'lim tashkilotining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda qanday tartibda e'lon qilib borilgan?

*Asoslantiruvchi hujjat (lar):*

- ✓ E'lon qilingan materiallar (screenshot yoki havola).

**4-MEZON. Ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani**

*Izoh: ta'lim jarayonlarini boshqarish, rejalashtirish va ta'lim sifati ko'rsatkichlarini baholashga xizmat qiluvchi raqamli axborot tizimi joriy etilganligi, uning vakolatli davlat organlari platformalari bilan integratsiyasi orqali ma'lumotlar almashinuvi baholanadi.*

#### 4.1. INDIKATOR

O'rta maxsus ta'lim tashkilotida axborot tizimi (EMIS AL, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi yoki boshqalar) joriy etilgan\*

*Yordamchi savollar:*

- ❖ Ta'lim tashkilotida qanday axborot tizimlari joriy etilgan va ulardan qanday maqsadlarda foydalanilgan?

*Asoslantiruvchi hujjat (lar):*

- ✓ Axborot tizimlari havolasi yoki screenshoti.

#### 4.2. INDIKATOR

Axborot tizimida o'quvchilar va pedagoglarga oid ma'lumotlar, shuningdek o'quv mashg'ulotlari (dars) jadvali, baholash va o'quvchilar davomati bo'yicha ma'lumotlarni yuritish imkoniyati mavjud

*Yordamchi savollar:*

- ❖ Axborot tizimida o'quvchilar va pedagoglarga oid ma'lumotlar qanday tartibda shakllantirilgan va yuritilgan?

❖ Axborot tizimida o'quv mashg'ulotlari jadvali, baholash natijalari, o'quvchilar davomati va boshqa ma'lumotlar to'liq va to'g'ri yuritilishi qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ O'quvchilar va pedagoglar, dars jadvali, baholash hamda davomat ma'lumotlari.

#### **4.3. INDIKATOR**

**O'zaro ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Ta'lim tashkilotining axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligi axborot tizimlari bilan qanday integratsiya qilingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Integratsiya jarayonini tasdiqlovchi ma'lumot.

#### **4.4. INDIKATOR**

**Axborot tizimini texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash choralari tizimli ravishda ko'rilgan hamda axborot tizimida foydalanuvchilarning samarali va qulay ishlay olishi ta'minlangan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Axborot tizimidan pedagoglar, o'quvchilar va ma'muriyat samarali va qulay foydalanishi uchun ta'lim tashkiloti AKT vositalari, internet tarmog'i hamda yo'riqnomalar bilan qanday ta'minlangan?

❖ Axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlarni himoyalash, kirish huquqlarini boshqarish uchun qanday choralar ko'rilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ AKT vositalari inventarizatsiyasi;

✓ Internet tarmog'iga ulanganligi bo'yicha shartnoma;

✓ Yo'riqnoma(lar).

#### **4.5. INDIKATOR**

Axborot tizimidagi ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi ta'minlangan hamda axborot tizimi o'z vaqtida yangilanib borilgan va monitoring yuritilgan, shuningdek ushbu ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlab borilgan

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Axborot tizimidagi o'quvchilar davomati, baholash hamda imtihon natijalariga oid ma'lumotlar aniqligi va ishonchliligi qanday ta'minlangan?
- ❖ Axborot tizimidagi ma'lumotlar qanday davriylikda va qaysi tartibda yangilanib borilgan hamda monitoring qilingan?
- ❖ Axborot tizimida shakllantirilgan ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar qanday tartibda tayyorlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Mas'ul administratori buyrug'i;
- ✓ Tahliliy hisobot.

#### 4.6. INDIKATOR

Tayyorlangan hisobotlar pedagogik kengashning yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni tuzatish choralari ko'rilgan

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Pedagogik kengashning yig'ilishlarida axborot tizimida aniqlangan muammo va kamchiliklarni tuzatish bo'yicha qanday qarorlar qabul qilingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

## II. TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH YO'NALISHI

***Izoh:*** ta'lim tashkiloti faoliyati, ta'lim jarayoni va natijalarini rejalashtirish va amalga oshirish, monitoring qilish va takomillashtirish, boshqaruv mexanizmlari hamda ushbu jarayonlarni davlat ta'lim standart (bundan buyon matnda DTS deb yuritiladi)lari va akkreditatsiya mezonlariga mosligi baholanadi

### 5-MEZON. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani\*

***Izoh:*** yuqori turuvchi tashkilotning mas'ullari, pedagoglar, o'quvchilar, soha mutaxassislari, bitiruvchilar, shuningdek ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ishtirokida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi tashkil etilganligi,

shuningdek boshqaruv tizimi mavjudligi va ularning baholash mezonlariga muvofiqligi baholanadi.

### 5.1. INDIKATOR

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash jarayonida yuqori turuvchi tashkilotning mas'ullari, pedagoglar, o'quvchilar, soha mutaxassisleri, bitiruvchilar, shuningdek ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) ishtiroki ta'minlangan

*Yordamchi savollar:*

❖ Ta'lim sifatini ichki ta'minlashda manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlash uchun qanday choralar ko'rilgan?

*Asoslantiruvchi hujjat (lar):*

- ✓ Chora-tadbirlar rejasi;
- ✓ Chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan ma'lumot.

### 5.2. INDIKATOR

Manfaatdor tomonlar ishtirokida muntazam tadbirlar (muhoqamalar, so'rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar yoki boshqalar) o'tkazilgan hamda ularning taklif va fikr-mulohazalari asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan

*Yordamchi savollar:*

❖ Manfaatdor tomonlar ishtirokida muhoqamalar, so'rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar yoki boshqalar qanday davriylikda o'tkazilgan?

❖ Manfaatdor tomonlar tomonidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalar qanday tahlil qilingan?

❖ Mazkur taklif va fikr-mulohazalar asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qanday ishlab chiqilgan?

*Asoslantiruvchi hujjat (lar):*

- ✓ O'tkazilgan tadbirlar ro'yxati;
- ✓ Chora-tadbirlar rejasi.

### 5.3. INDIKATOR

Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi muntazam takomillashtirilgan

*Yordamchi savollar:*

❖ Chora-tadbirlar rejasi asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi qanday davriylikda takomillashtirilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

✓ Chora-tadbirlar reja ijrosi bo'yicha ma'lumot.

#### 5.4. INDIKATOR

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi takomillashtirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rta maxsus ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e'lon qilib borilgan

**Yordamchi savollar:**

❖ Ta'lim sifatini takomillashtirishga oid ma'lumotlar ta'lim tashkilotining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda qanday tartibda e'lon qilib borilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

✓ E'lon qilingan materiallar (skrinshot yoki havola).

**6-MEZON. Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilgani\***

***Izoh:** ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilgani, tizim samaradorligi tahlil qilib borilgani hamda uni takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar baholanadi.*

#### 6.1. INDIKATOR

O'rta maxsus ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi (ichki baholash tartibi) ishlab chiqilgan hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash bo'linmasi tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan\*

**Yordamchi savollar:**

❖ Ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini ta'minlashga mas'ul bo'linma (xodim) qanday tartibda tashkil etilgan?

❖ Ta'lim sifatini ta'minlashga mas'ul bo'linma nizomi qanday tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

✓ Mas'ul bo'linma yoki xodim(lar)ni buyrug'i;

✓ Bo'linma nizomi.

#### 6.2. INDIKATOR

**Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini ichki baholash tartibi amaliyotga joriy etilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi doirasida ishlab chiqilgan ichki baholash tartibi amaliyotga qanday joriy etilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Ichki baholash hisoboti.

### **6.3. INDIKATOR**

**Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimining samaradorligi doimiy ravishda monitoring qilingan va davriy (yarim yillik va yillik) tahlillar asosida baholab borilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimining samaradorligi qanday davriylikda monitoring qilingan?

❖ Monitoring natijasi asosida tahlillar qanday shakllantirilgan va Pedagogik kengashda qanday tartibda muhokama qilingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Ichki baholash hisoboti;

✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

### **6.4. INDIKATOR**

**Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Pedagogik kengashda muhokama qilingan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasida qanday masalalar aks ettirilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Chora-tadbirlar rejasi.

### **6.5. INDIKATOR**

**Aniqlangan muammo va kamchiliklar chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o'z vaqtida bartaraf etib borilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash yuzasidan qanday ishlar amalga oshirilgan?

❖ Chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar qanday davriylikda monitoring qilib borilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha ma'lumot.

## 6.6. INDIKATOR

**Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi doimiy ravishda ichki baholashdan o'tkazilgan, ichki baholash natijalari pedagogik kengashning yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga o'z vaqtida va to'liq taqdim etib borilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi doirasida ichki baholashlar qanday davriylikda o'tkazilgan?

❖ Ichki baholash natijalari pedagogik kengashi yig'ilishlarida qanday tartibda muhokama qilingan hamda qabul qilingan qarorlar qanday hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan?

❖ Ichki baholash hisoboti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga qanday shakl va muddatlarda taqdim etib borilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma;

✓ Ichki baholash hisobotlari.

## **7-MEZON. O'quvchilar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqlik**

***Izoh:*** o'quvchilar bilimini o'qitish natijalariga muvofiqligi, xolislik va shaffoflik mezonlari asosida tahlil qilinganligi, shuningdek baholash jarayonlari ochiq va adolatli tashkil etilganligi baholanadi.

### 7.1. INDIKATOR

**O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonlari bo'yicha tartib, qoidalar, mezonlar va usullar (bundan buyon matnda baholash tartibi deb yuritiladi) ishlab chiqilgan hamda ta'lim dasturlaridagi kutilgan o'quv**

**natijalari (learning outcomes) va fanlarning (modullarning) maqsadlariga mosligi ta'minlangan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash tartibi qanday ishlab chiqilgan?
- ❖ Baholash tartibining ta'lim dasturlaridagi kutilgan o'quv natijalari (learning outcomes) va fanlar maqsadlariga muvofiqligi qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ O'quvchilarni baholash tartibi;
- ✓ Ishchi o'quv dasturi.

## **7.2. INDIKATOR**

**Baholash tartibi o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'quvchilarga ma'lum qilib borilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Baholash tartibi bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'quvchilarga qanday ma'lumotlar yetkazilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Baholash tartibi e'lon qilinganligi (screenshot yoki havola).

## **7.3. INDIKATOR**

**Baholash jarayonida raqamli texnologiyalar samarali va doimiy qo'llanilgan hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonida xolislik, shaffoflik va akademik halollik ta'minlangan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ O'quvchilarni baholash jarayonida qanday raqamli texnologiyalardan foydalanilgan?
- ❖ O'quvchilarni baholash jarayonida raqamli texnologiyalar qanday davriylikda qo'llanilgan?
- ❖ O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonida xolislik, shaffoflik va akademik halollik qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Raqamli platformalarda baholash ma'lumoti (screenshot yoki havola).

## **7.4. INDIKATOR**

**Baholash natijalari raqamli platformalar, o'quvchilarning amaliyot kundaligi, yakuniy davlat attestatsiya (bundan buyon matnda YDA deb yuritiladi) komissiyasining baholash bayonnomalarida tizimli ravishda aks ettirilgan hamda saqlangan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Baholash natijalari raqamli platformalar, o'quvchilarning kundaligi va YDA komissiyasi baholash bayonnomalarida qanday tartibda qayd etilgan?

❖ Baholash natijalarini saqlash jarayonida ma'lumotlarning to'liqligi, aniqligi hamda o'zgarmasligini ta'minlash uchun qanday choralar ko'rilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Raqamli platformadagi baholash natijalari (skrinshot);

✓ YDA bayonnomalari.

## **7.5. INDIKATOR**

**Baholash jarayoni va natijalari bo'yicha o'quvchilarning shikoyatlari o'rta maxsus ta'lim tashkilotining apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan va tizimli ravishda tahlil qilingan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Baholash jarayoni va natijalari bo'yicha o'quvchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi qanday tartibda tuzilgan?

❖ Baholash jarayoni va natijalari bo'yicha o'quvchilarning shikoyatlari apellyatsiya komissiyasi tomonidan qanday tartibda tahlil qilingan?

❖ O'quvchilarning shikoyatlari yuzasidan apellyatsiya komissiyasi tomonidan qanday qarorlar qabul qilingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Apellyatsiya arizalari reyestri;

✓ Apellyatsiya komissiyasi bayonnomalari.

## **7.6. INDIKATOR**

**Shikoyatlar tahlili natijalari bo'yicha hisobotlar muntazam tayyorlangan va baholash jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan, shuningdek baholash tartibi va mezonlariga zarur o'zgartirishlar kiritib borilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Baholash jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasida shikoyatlar tahlili natijalari asosida qanday vazifalar belgilangan?

❖ Pedagogik kengashda shikoyatlar tahliliga asosan baholash tartibi va mezonlariga qanday o'zgartirishlar kiritilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Chora-tadbirlar rejas;
- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

**8-MEZON. Bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilgani va manfaatdor tomonlarning bitiruvchilarga oid fikr-mulohazalari muntazam ravishda tahlil qilingani**

***Izoh:*** ta'lim tashkilotida bitiruvchilarning bandligini kuzatish va tahlil qilish tizimi yo'lga qo'yilganligi, ish beruvchilarning bitiruvchilar malakasi, tayyorgarligiga oid fikr-mulohaza va takliflari tahlil qilinishi, ulardan ta'lim dasturlarini takomillashtirishda foydalanish darajasi baholanadi.

**8.1. INDIKATOR**

**Bitiruvchilar bilan ishlash bo'linmasi yoki mas'ul xodim(lar) faoliyat yuritadi hamda uning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi ta'minlangan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Ta'lim tashkilotida bitiruvchilar bilan ishlash bo'linmasi yoki mas'ul xodim(lar) faoliyati qanday tartibda tashkil etilgan?

❖ Bitiruvchilar bilan ishlash bo'linmasi yoki mas'ul xodim(lar) yillik ish rejasida bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga doir qanday vazifalar belgilangan va ularning ijrosi ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Bitiruvchilar bilan ishlash bo'linmasi yoki mas'ul xodim(lar) nizomi;
- ✓ Bitiruvchilar bilan ishlash bo'linmasi yoki mas'ul xodim(lar) yillik ish rejas;
- ✓ Yillik ish reja ijrosi bo'yicha ma'lumot.

**8.2. INDIKATOR**

**Mehnat bozoridagi tendensiyalar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Mehnat bozoridagi tendensiyalarni aniqlash va tahlil qilish ish beruvchilar, statistika ma'lumotlari, soha tahlillari va boshqalar asosida qanday amalga oshirilgan?

❖ Aniqlangan mehnat bozori tendensiyalari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha qanday aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Mehnat bozori tahliliy ma'lumotlari;
- ✓ Taklif va tavsiyalar ro'yxati.

### 8.3. INDIKATOR

**Bitiruvchilarning tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va ish joyidagi samaradorligi yuzasidan ish beruvchilardan taklif va fikr-mulohazalar olingan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Bitiruvchilarning tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va ish joyidagi samaradorligi bo'yicha ish beruvchilardan taklif va fikr-mulohazalarni olishning qanday tizimi yo'lga qo'yilgan?

❖ Ish beruvchilardan olingan taklif va fikr-mulohazalar ta'lim dasturlarini, amaliy mashg'ulotlar hamda o'quv jarayonini takomillashtirishda qanday inobatga olingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ So'rovnoma savollari;
- ✓ Takomillashtirish natijalari bo'yicha ma'lumot.

### 8.4. INDIKATOR

**Ish beruvchilarning taklif va fikr-mulohazalari asosida o'quv jarayoni tizimli ravishda takomillashtirilgan hamda qabul parametrlari qayta ko'rib chiqilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Bitiruvchilarning bandligi bo'yicha monitoring natijalari hamda ish beruvchilarning taklif va fikr-mulohazalari asosida o'quv jarayoniga qanday o'zgartirishlar kiritilgan?

❖ Qabul parametrlari monitoring natijalari va ish beruvchilarning taklif va fikr-mulohazalari asosida qanday tartibda qayta ko'rib chiqilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Ish beruvchilarning xatlari;
- ✓ Qabul parametrlariga takliflar.

### III. O'QUVCHILAR FAOLIYATI YO'NALISHI

**Izoh:** ta'lim tashkilotida o'quvchilarni qabul qilish, o'qish jarayonida qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish, ta'limning keyingi bosqichi bo'yicha mavjud imkoniyatlar bilan tanishtirish, bitiruvdan keyingi natijalarni o'rganish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyat baholanadi.

**9-MEZON. Qabul parametrlarining ta'lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi\***

**Izoh:** ta'lim tashkilotida qabul ko'rsatkichlarining kadrlar salohiyati, moddiy-texnika baza, o'quv-uslubiy ta'minot va infratuzilmaviy imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanganligi baholanadi.

#### 9.1. INDIKATOR

**Qabul parametrlari o'rta maxsus ta'lim tashkilotining infratuzilmasi, moliyaviy imkoniyatlari, o'quv va laboratoriya xonalari, davlat ta'lim standartlariga mos ravishda belgilangan\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Qabul parametrlarini shakllantirishda ta'lim tashkilotining infratuzilmasi, moliyaviy imkoniyatlari, o'quv va laboratoriya xonalari qanday inobatga olingan?
- ❖ Davlat ta'lim standartlariga mos ravishda qabul parametrlari qanday shakllantirilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Tasdiqlangan qabul parametrlari;
- ✓ Ta'lim tashkilotining pasporti.

#### 9.2. INDIKATOR

**Qabul parametrlari mehnat bozori, rivojlantirish rejasi, pedagoglarning soni va tarkibi, ularning o'quv (ish) yuklamasi bilan uyg'unlashtirilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Qabul parametrlari tegishli hududning mehnat bozori ehtiyojlari va rivojlanish rejalariga qanday moslashtirilgan?
- ❖ Ta'lim tashkilotida pedagoglarning soni va mutaxassisligi qabul parametrlarini shakllantirishda qanday inobatga olingan?
- ❖ Pedagoglarning o'quv (ish) yuklamasi qabul parametrlari bilan uyg'unligi qanday ta'minlangan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Tasdiqlangan qabul parametrlari;
- ✓ Mehnat bozori bo'yicha tahliliy ma'lumot;
- ✓ Pedagoglar yuklamasi bo'yicha ma'lumot.

### 9.3. INDIKATOR

**Qabul parametrlarining bajarilish holati bo'yicha har yili tahlillar amalga oshirilgan hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o'zgartirishlar kiritib borilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Yillik tahlil asosida qabul parametrlariga qanday zarur o'zgartirishlar kiritilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Tasdiqlangan qabul parametrlari.

**10-MEZON. O'quvchilarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani\***

***Izoh:*** ta'lim tashkilotida qabul jarayoni amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ichki tartib-qoidalarga muvofiq tashkil etilgani, qabul bosqichlarining ochiqligi va shaffofligi ta'minlangani, barcha nomzodlarga teng imkoniyat yaratilgani hamda qabul natijalari adolatli baholash mezonlariga asoslangan holda amalga oshirilgani baholanadi.

### 10.1. INDIKATOR

**O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyati belgilangan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari hamda baholash usullari qanday ishlab chiqilgan?
- ❖ Qabul komissiyasining tarkibi qanday tartibda shakllantirilgan va tasdiqlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Komissiya buyrug'i.

### 10.2. INDIKATOR

**O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari va baholash usullari bilan bog'liq ma'lumotlarning ochiqligi ta'minlangan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari va baholash usullari bo'yicha ma'lumotlarning veb-sayt, axborot stendlari, elektron platformalar va boshqalar orqali ochiq qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ E'lon qilingan materiallar (skrinshot yoki havola).

### 10.3. INDIKATOR

**Qabul jarayonida abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilgan va qabul jarayonining barcha bosqichlari (hujjat topshirish, kirish imtihonlarini o'tkazish va natijalarini e'lon qilish, tanlov asosida o'qishga tavsiya etilgan yoki tavsiya etilmagan abituriyentlar ro'yxatini e'lon qilish va boshqalar) ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Qabul jarayonining barcha bosqichlari ochiq va shaffof tarzda o'tkazilishi qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Qabul natijalari (e'lon qilingan).

### 10.4. INDIKATOR

**Qabul natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan ariza va shikoyatlar rasmiylashtirilgan, ko'rib chiqilgan va ularning ijrosi nazoratga olingan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Qabul natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasi qanday tartibda tashkil etilgan?

❖ Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayoni qanday muddatlar, mezonlar va tartiblar asosida amalga oshirilgan hamda qabul qilingan qarorlar manfaatdor tomonlarga qanday shaklda yetkazilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Apellyatsiya komissiyasi buyrug'i;

✓ Ariza va shikoyatlar reyestri;

✓ Ariza va shikoyatlar ijrosi bo'yicha ma'lumot.

### 10.5. INDIKATOR

**Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va qabul jarayonida xolislikni ta'minlashga qaratilgan raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Qabul jarayonida korrupsiyaning oldini olish va manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish maqsadida qanday tashkiliy va profilaktik choralar ko'rilgan?
- ❖ Qabul jarayonida xolislikni ta'minlash maqsadida qanday raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha o'tkazilgan tadbirlar ro'yxati;
- ✓ Tadbirlar bo'yicha ma'lumotnoma.

**10.6. INDIKATOR**

**Qabul jarayoni doimiy ravishda tahlil qilingan hamda tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish choralari ko'rilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Qabul jarayoni bo'yicha tahlil qanday davriylikda amalga oshirilgan?
- ❖ Qabul jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday choralar ko'rilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Qabul jarayoni tahlili yuzasidan ma'lumot;
- ✓ Ko'rilgan choralar bo'yicha ma'lumot.

**11-MEZON. O'quvchilar o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish va o'qishdan chetlashtirish (bundan buyon matnda o'quvchilar harakati deb yuritiladi) jarayonlarining belgilangan tartibda amalga oshirilgani\***

**Izoh:** o'quvchilar harakati bo'yicha tasdiqlangan hujjat(lar)ning (tartib, nizom) mavjudligi va o'quvchilar uchun ochiqligi hamda teng tatbiq etilishi baholanadi.

**11.1. INDIKATOR**

**O'quvchilar harakati o'rta maxsus ta'lim tashkilotiga o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshirilgan hamda o'quvchilar harakatini amalga oshirish bo'yicha mas'ul komissiya yoki ishchi guruh tashkil etilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ O'quvchilar harakati qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan va qanday tartibda tashkil etilgan?

❖ O'quvchilar harakati bo'yicha mas'ul komissiya (yoki ishchi guruh) qanday shakllantirilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ O'quvchilar harakati bo'yicha tartib;
- ✓ Mas'ul komissiya (yoki ishchi guruh) buyrug'i.

**11.2. INDIKATOR**

**O'quvchilar harakati bo'yicha buyruqlar, komissiya bayonnomalari va boshqa tegishli hujjatlar asosli, adolatli va shaffof tarzda qabul qilingan holda to'g'ri rasmiylashtirilgan hamda ularning hisoboti va monitoringi muntazam yuritilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ O'quvchilar harakati bo'yicha buyruqlar, komissiya bayonnomalari va boshqa tegishli hujjatlar qanday tartibda rasmiylashtirilgan?
- ❖ O'quvchilar harakati bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish jarayonida asoslilik, adolatlilik va shaffoflikni ta'minlash qanday amalga oshirilgan?
- ❖ O'quvchilar harakati bo'yicha hisobot va monitoring qanday tartibda yuritilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Buyruqlar va Pedagogik kengash bayonnomalaridan ko'chirma;
- ✓ Hisobot va monitoring hujjatlari bo'yicha ma'lumot.

**11.3. INDIKATOR**

**Kursdan-kursga o'tkazishning mezonlari aniq belgilangan hamda kursdan-kursga o'tkazish yoki chetlashtirish bo'yicha qaror qabul qilishda akademik ko'rsatkichlar ham hisobga olingan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Kursdan-kursga o'tkazish yoki chetlashtirish qanday tartibda amalga oshirilgan?
- ❖ Kursdan-kursga o'tkazish yoki chetlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari qanday hisobga olingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ O'quvchilarni kursdan-kursga o'tkazish va chetlashtirish buyruqlari;
- ✓ Akademik ko'rsatkichlar inobatga olinganligi yuzasidan ma'lumot.

**11.4. INDIKATOR**

**O'quvchilar harakati bo'yicha o'quvchilarning huquqlari ta'minlangan hamda o'quvchilar harakati jarayonlari haqida o'quvchilar va ularning ota-onalari xabardor qilingan, shuningdek o'quvchilar harakati bo'yicha barcha o'zgarishlar ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarida (EMIS AL) o'z vaqtida va to'liq aks ettirilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ O'quvchilar harakati bo'yicha o'quvchilarning huquqlari qanday ta'minlangan?
- ❖ O'quvchilar va ularning ota-onalarini o'quvchilar harakati bilan bog'liq jarayonlar, tartiblar va qabul qilingan qarorlar bo'yicha qanday xabardor qilingan?
- ❖ O'quvchilar harakati bo'yicha barcha o'zgarishlarni ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarida (EMIS AL va boshqalar) qanday aks ettirilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Statistik hisobotlar va buyruqlar (nusxasi);
- ✓ E'lon qilingan materiallar (skrinshot yoki havola);
- ✓ Platforma (skrinshot yoki tizim ma'lumoti).

**11.5. INDIKATOR**

**O'quvchilar harakati bo'yicha shikoyat berish uchun ochiq va qulay tizim yaratilgan va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonlari samarali tashkil etilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ O'quvchilar harakati bo'yicha shikoyat berish uchun ochiq va qulaylik qanday ta'minlangan?
- ❖ O'quvchilar harakati bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayoni qanday tashkil etilgan va samaradorligi ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Shikoyat berish tartibi;
- ✓ Bayonnoma yoki dalolatnoma.

**12-MEZON. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari tashkil etilgani, ularning mehnat bozorida va ta'limning keyingi bosqichi bo'yicha mavjud imkoniyatlar to'g'risidagi ishonchli axborotlar bilan ta'minlangani**

***Izoh:*** ta'lim tashkilotida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, ularning mehnat bozori talablari, ish beruvchilar ehtiyojlari hamda oliy ta'lim tashkilotlarida o'qish imkoniyatlari haqida xabardorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar mavjudligi baholanadi.

### 12.1. INDIKATOR

**O'rta maxsus ta'lim tashkilotida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va ta'limni keyingi bosqichda davom ettirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va ta'limni keyingi bosqichda davom ettirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan?

❖ Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi qay darajada ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Chora-tadbirlar rejasi;

✓ Chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan ma'lumot.

### 12.2. INDIKATOR

**O'quvchilarga mehnat bozoridagi bo'sh ish o'rinlari, karyera kunlari, potensial ish beruvchilar va kasbga yo'naltirish hamda ta'limni keyingi bosqichida davom ettirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Mehnat bozoridagi bo'sh ish o'rinlari, karyera kunlari, potensial ish beruvchilar va kasbga yo'naltirish hamda ta'limni keyingi bosqichida davom ettirish bo'yicha ma'lumotlar qanday shakllantirilgan?

❖ O'quvchilarga ushbu ma'lumotlar qanday yetkazilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Ma'lumotlar shakllantirilgani va ularni o'quvchilarga yetkazilgani to'g'risida ma'lumot.

### 12.3. INDIKATOR

**O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ish beruvchilar va ta'limni keyingi bosqichida davom ettirish bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ish beruvchilar va ta'limni keyingi bosqichida davom ettirish bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qanday qanday tartibda yo'lga qo'yilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Shartnomalari yoki memorandumlar;

- ✓ Uchrashuv bayonnomalari.

#### 12.4. INDIKATOR

O'rta maxsus ta'lim tashkiloti tomonidan o'quvchilar ishtirokida kasbga yo'naltirish va ta'limni keyingi bosqichida davom ettirish bo'yicha tadbirlarni (seminarlar, uchrashuvlar, maslahatlar, davra suhbatlari yoki boshqalar) o'tkazib borish yo'lga qo'yilgan

*Yordamchi savollar:*

- ❖ Ta'lim tashkiloti tomonidan o'quvchilar ishtirokida kasbga yo'naltirish va ta'limni keyingi bosqichida davom ettirish bo'yicha qanday tadbirlar o'tkazilgan?
- ❖ Mazkur tadbirlarni tashkil etishda qaysi mas'ul bo'linmalar yoki xodimlar jalb etilgan va qanday masalalar muhokama qilingan?

*Asoslantiruvchi hujjat (lar):*

- ✓ Tadbirlar ro'yxati va rejasi;
- ✓ Tadbirlar bayonnomalari.

#### 12.5. INDIKATOR

Mehnat bozori va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar o'rta maxsus ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlariga muntazam joylashtirilgan va yangilanib borilgan

*Yordamchi savollar:*

- ❖ Ta'lim tashkiloti rasmiy veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida mehnat bozori va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar qanday davriylikda joylashtirilgan va yangilanib borilgan?

*Asoslantiruvchi hujjat (lar):*

- ✓ Sayt va ijtimoiy tarmoqdagi ma'lumot (screenshot yoki havola).

**13-MEZON. O'quvchilarning respublika va xalqaro fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarda (bundan buyon matnda tanlovlar deb yuritiladi) ishtirok etgani hamda ularda sovrindor bo'lgan o'quvchilarning rag'batlantirilgani**

*Izoh: o'quvchilarini tanlovlarga tayyorlash, ishtirokini ta'minlash va g'oliblarni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilganligi baholanadi.*

#### 13.1. INDIKATOR

O'quvchilarning tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar rejasi mavjud

*Yordamchi savollar:*

❖ O'quvchilarning turli tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar rejasida ishlab chiqilgan?

❖ Chora-tadbirlar rejasida o'quvchilarni tanlovlarga jalb etish, tayyorlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qanday tartib va mas'ul ijrochilar belgilangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Chora-tadbirlar rejasida.

### **13.2. INDIKATOR**

**O'quvchilarning tanlovlardagi ishtirokini muvofiqlashtirish uchun bo'linma tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'quvchilarning tanlovlardagi ishtirokini muvofiqlashtirish uchun qanday bo'linma tashkil etilgan yoki qaysi mas'ul xodim(lar) qanday tartib asosida ajratilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Mas'ul bo'linma yoki xodim(lar) buyrug'i.

### **13.3. INDIKATOR**

**O'quvchilarni tanlovlarga tayyorlash bo'yicha to'garaklar yoki maxsus kurslar tashkil etilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'quvchilarni tanlovlarga tayyorlash maqsadida qanday to'garaklar yoki maxsus kurslar tashkil etilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ To'garaklar bo'yicha ma'lumot;

✓ Kurs(lar) buyrug'i.

### **13.4. INDIKATOR**

**O'quvchilarning tanlovlardagi ishtiroki bo'yicha monitoring yuritilgan, shuningdek tanlovlarda qatnashgan o'quvchilarning ro'yxati va ularning natijalari qayd etib borilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'quvchilarning tanlovlardagi ishtiroki va erishgan natijalari bo'yicha monitoring qanday tartibda yuritilgan?

❖ Tanlovlarda qatnashgan o'quvchilar va ularning natijalari qanday qayd etib borilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Monitoring bo'yicha ma'lumot;
- ✓ O'quvchilar ro'yxati va natijalari.

**13.5. INDIKATOR**

**Tanlov natijalari asosida pedagoglar va o'quvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralari ko'rilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ Tanlov natijalari asosida pedagoglar va o'quvchilarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha qanday choralar ko'rilgan va rasmiylashtirilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Rag'batlantirish buyrug'i.

**13.6. INDIKATOR**

**O'quvchilarning tanlovlardagi natijalari tizimli ravishda tahlil qilingan va tanlovlarga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ O'quvchilarning tanlovlardagi natijalari qanday davriylikda tahlil qilingan?

❖ O'quvchilarni tanlovlarga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha qanday takliflar ishlab chiqilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Tahliliy ma'lumot (tanlov natijalari asosida);
- ✓ Takomillashtirish yuzasidan takliflar.

**14-MEZON. Bitiruvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirgani**

***Izoh:** ta'lim tashkilotida bitiruvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirish ko'rsatkichlari tahlili, ularning bilim va ko'nikmalari oliy ta'lim talablariga mos ekanligi hamda bitiruvchilarning oliy ta'lim yo'nalishi bo'yicha kirish ko'rsatkichlari baholanadi.*

**14.1. INDIKATOR**

**O'quvchilarni oliy ta'lim bilan qamrovini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ O'quvchilarni oliy ta'lim bilan qamrovini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasida qanday vazifalar belgilangan?

❖ Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Chora-tadbirlar rejasi;

✓ Chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha ma'lumot.

#### **14.2. INDIKATOR**

**O'quvchilarni oliy ta'limga tayyorlash bo'yicha kurslar va to'garaklar tashkil etilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'quvchilarni oliy ta'limga tayyorlash bo'yicha qanday kurs va to'garaklar tashkil etilgan?

❖ Ushbu kurs va to'garaklarda o'quvchilar ishtiroki hamda natijalari qanday hisobga olingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Kurs va to'garaklar ro'yxati;

✓ Kurs va to'garaklarda o'quvchilar ishtiroki hamda natijalar yuzasidan ma'lumot.

#### **14.3. INDIKATOR**

**O'quvchilarning oliy ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan tadbirlarda (seminarlar, uchrashuvlar, maslahatlar, davra suhbatlari yoki boshqalar) ishtiroki bo'yicha shart-sharoitlar yaratilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'quvchilarning oliy ta'lim tashkilotlarida o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratilgan?

❖ O'quvchilarning ushbu tadbirlardagi ishtiroki qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Oliy ta'lim tashkilotlarida o'tkazilgan tadbirlar ro'yxati;

✓ O'quvchilar ishtiroki yuzasidan ma'lumot.

#### **14.4. INDIKATOR**

**Bitiruvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga kirish ko'rsatkichlari bo'yicha monitoring va tahlil yuritib borilgan hamda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrovini kengaytirish bo'yicha choralar ko'rilgan\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Bitiruvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga kirish ko'rsatkichlari bo'yicha monitoring qanday davriylikda amalga oshirilgan?
- ❖ Monitoring natijalari asosida tahlil qanday amalga oshirilgan?
- ❖ Bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrovini kengaytirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Monitoring ma'lumotlari;
- ✓ Tahliliy hisobot;
- ✓ Chora-tadbirlar rejasi.

#### **IV. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH YO'NALISHI**

***Izoh:*** ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayoni DTS, ta'lim dasturidagi nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uyg'unligi asosida tashkil etilganligi, o'qitish natijalari ta'lim dasturida belgilangan mezonlar asosida xolislik va shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etilganligi baholanadi.

**15-MEZON. O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani\***

***Izoh:*** ta'lim tashkilotida o'quv jarayonini tashkil etishga oid barcha rejalashtiruvchi hujjatlarning ishlab chiqilganligi baholanadi.

##### **15.1. INDIKATOR**

**Ishchi o'quv reja va fan dasturlari, shuningdek o'quv jarayoni grafigi davlat ta'lim standartlarining talablariga mos\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Ishchi o'quv reja va fan dasturlarining davlat ta'lim standartlari talablariga mosligi qanday ta'minlangan?
- ❖ O'quv jarayoni grafigi davlat ta'lim standartlariga muvofiq qanday ishlab chiqilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Ta'lim dasturi;

- ✓ Ishchi o'quv reja;
- ✓ O'quv jarayoni grafigi.

### 15.2. INDIKATOR

**O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari (ishchi o'quv rejalar, ishchi o'quv dasturlar, o'quv jarayoni grafigi va o'quv mashg'ulotlari (dars) jadvali) pedagogik kengashda muhokamadan o'tkazilgan holda tasdiqlangan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari (ishchi o'quv rejalar, ishchi o'quv dasturlari, o'quv jarayoni grafigi va dars jadvali) pedagogik kengashda qanday tartibda muhokamadan o'tkazilgan?
- ❖ Pedagogik kengash muhokamasi jarayonida bildirilgan taklif va xulosalar o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarida qanday inobatga olingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

### 15.3. INDIKATOR

**O'quv mashg'ulotlari (dars) jadvali ishchi o'quv rejalar va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq ishlab chiqilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ O'quv mashg'ulotlari (dars) jadvalini ishchi o'quv rejalar va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ O'quv mashg'ulotlari (dars) jadvali.

### 15.4. INDIKATOR

**O'quv jarayonini tashkil etish uchun o'quv-uslubiy resurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) samarali va maqsadli ravishda foydalanilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ O'quv jarayonini tashkil etishda o'quv-uslubiy resurslar va AKTdan samarali va maqsadli foydalanish qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ O'quv-uslubiy resurslar foydalanish bo'yicha ma'lumotnoma;
- ✓ AKTdan foydalanish bo'yicha ma'lumotnoma.

## **16-MEZON. Pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani va yuritilishi\***

*Izoh: pedagoglar tomonidan o'quv-me'yoriy hujjatlarning DTS, uslubiy tavsiyanoma va yo'riqnomalar asosida ishlab chiqilgan hamda yuritilganligi baholanadi.*

### **16.1. INDIKATOR**

**Pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlarini (ishchi o'quv dasturi, o'qitish materiallari) ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muhokamalar va seminar-treninglar tashkil etilgan**

*Yordamchi savollar:*

❖ Pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalalari bo'yicha qanday muhokama va seminar-treninglar tashkil etilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Muhokama va seminar-treninglar rejasi (tasdiqlangan);
- ✓ Muhokama va seminar-treninglar bayonnomalari.

### **16.2. INDIKATOR**

**Pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlari ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda pedagogik kengash muhokamasidan o'tkazilgan holda hujjatlashtirilgan**

*Yordamchi savollar:*

❖ Pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlari ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi qanday ta'minlangan?

❖ Pedagogik kengashda pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlari bo'yicha qanday masalalar muhokama qilingan va hujjatlashtirilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma;
- ✓ Ishchi o'quv dasturlari;
- ✓ O'qitish materiallari.

### **16.3. INDIKATOR**

**Ishlab chiqilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar amaliyotga tatbiq etilgan hamda ushbu hujjatlarning amalda qo'llanilishi doimiy ravishda monitoring va tahlil qilingan**

*Yordamchi savollar:*

❖ Ishlab chiqilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar qanday tartibda amaliyotga joriy etilgan?

❖ Mazkur o'quv-me'yoriy hujjatlarning amalda qo'llanilishi qanday monitoring va tahlil qilingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma;
- ✓ Monitoring va tahliliy ma'lumotlar.

**16.4. INDIKATOR**

**Monitoring va tahlil natijasida o'quv-me'yoriy hujjatlarni qo'llashda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan va ijro etilgan hamda shu asosida o'quv-me'yoriy hujjatlar takomillashtirib borilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'quv-me'yoriy hujjatlarni qo'llash jarayoni monitoringi va tahlili natijasida qanday muammo va kamchiliklar aniqlangan?

❖ Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan?

❖ Belgilangan chora-tadbirlar asosida qaysi o'quv-me'yoriy hujjatlar qanday darajada takomillashtirilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Chora-tadbirlar rejasi;
- ✓ Takomillashtirilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar.

**17-MEZON. Pedagoglarga o'quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani**

***Izoh:*** pedagoglarning o'quv yuklamalari amaldagi tartibga muvofiq taqsimlangan, malaka toifasiga mos yuklama va ish hajmining ta'minlangani baholanadi.

**17.1. INDIKATOR**

**Pedagoglarning o'quv (ish) yuklamalari o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida pedagog xodimlar ish faoliyatining (o'quv va pedagogik yuklamasining) vaqt me'yorlari va shtatlar jadvaliga muvofiq ishlab chiqilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Pedagoglarning o'quv (ish) yuklamalari vaqt me'yorlari va shtatlar jadvaliga muvofiq qanday taqsimlangan va tasdiqlangan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Pedagoglarning yuklama taqsimoti;
- ✓ Shtatlar jadvali.

**17.2. INDIKATOR**

**O'quv (ish) yuklamalarining taqsimotida pedagoglarning mutaxassisligi, dars beradigan fanlari, ish turlari va vaqt me'yori (soat) hisobga olingan\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Pedagoglarning o'quv (ish) yuklamalarini taqsimlashda mutaxassisligi bilan dars beradigan fanlari (modullari) muvofiqligi qanday ta'minlangan?
- ❖ Ish turlari va vaqt me'yori (soat) pedagoglarning o'quv (ish) yuklamalari taqsimotida qanday hisobga olingan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Pedagog hujjatlari (diplom va sertifikat);
- ✓ Pedagoglarning yuklama taqsimoti.

**17.3. INDIKATOR**

**O'quv (ish) yuklamalarning bajarilish holati doimiy ravishda monitoring qilingan va davriy (oylik, yarim yillik va yillik) tahlillar amalga oshirilgan hamda hisobotlar yuritilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Pedagoglar o'quv (ish) yuklamalarining bajarilish holati qanday tartibda monitoring qilingan?
- ❖ O'quv (ish) yuklamalari bo'yicha oylik, yarim yillik va yillik tahlillar qanday amalga oshirilgan?
- ❖ Monitoring va tahlillar natijalari asosida qanday hisobotlar yuritilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ O'quv (ish) yuklamasini bajarilishi bo'yicha hisobot.

**17.4. INDIKATOR**

**Monitoring va tahlil jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan hamda ijrosi ta'minlangan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ O'quv (ish) yuklamalarini monitoring va tahlil qilish jarayonidagi muammo va kamchiliklar qanday tartibda aniqlangan?

❖ Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini qanday tartibda ishlab chiqilgan?

❖ Chora-tadbirlar rejasining ijrosi qanday ta'minlangan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

✓ Chora-tadbirlar rejasini;

✓ Chora-tadbirlar rejasini ijrosi bo'yicha ma'lumot.

### 17.5. INDIKATOR

**Monitoring va tahlil jarayonlari ochiq va adolatli tarzda amalga oshirilganligi va chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta'minlanganligi bo'yicha ma'lumotlar pedagogik kengashga taqdim etilgan va muhokama qilingan**

**Yordamchi savollar:**

❖ Monitoring va tahlil jarayonlarining ochiq va adolatli amalga oshirilishi qanday ta'minlangan?

❖ Chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta'minlanganligi bo'yicha ma'lumotlar pedagogik kengashga qanday tartibda taqdim etilgan va unda qaysi masalalar muhokama qilingan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

**18-MEZON. O'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani**

**Izoh:** o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etilgani hamda ularning qo'llanishi ta'lim sifatini yaxshilab, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilgani baholanadi.

### 18.1. INDIKATOR

**Fanlar va laboratoriya mashg'ulotlarni o'qitish jarayonida kutilgan o'quv natijalariga erishishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullari doimiy ravishda qo'llanilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ Fanlar va laboratoriya mashg'ulotlarni o'qitish jarayonida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun qanday ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullaridan foydalanilgan?

❖ O'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullari qanday davriylikda qo'llanilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

✓ Fanlar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullari ro'yxati.

## 18.2. INDIKATOR

**Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarining qamrovi va murakkabligi ta'lim dasturining darajasi va o'quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda belgilangan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarining qamrovi hamda murakkabligi ta'lim dasturining darajasiga qanday muvofiqlashtirilgan?

❖ Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini qo'llashda o'quvchilarning qanday ehtiyojlari inobatga olingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ So'rovnoma natijalari;

✓ Metodik qo'llanma yoki tartib.

## 18.3. INDIKATOR

**Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini qo'llash samaradorligi muntazam monitoring va tahlil qilib borilgan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklar bo'yicha pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish choralari ko'rilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini qo'llash samaradorligi qanday ko'rsatkichlar asosida va qanday davriylikda monitoring hamda tahlil qilingan?

❖ Monitoring va tahlil natijasida qanday muammo va kamchiliklar aniqlangan?

❖ Aniqlangan muammo va kamchiliklar asosida pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Pedagoglarning kasbiy salohiyatni oshirish rejasi;

✓ Monitoring va tahlil ma'lumotlari.

## 18.4. INDIKATOR

**Monitoring, tahlil va pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish natijalari asosida o'rta maxsus ta'lim tashkilotida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar doimiy ravishda yangilangan hamda takomillashtirilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ Monitoring va tahlil hamda pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish natijalari asosida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni yangilash va takomillashtirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

✓ Yangilangan hamda takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalar bo'yicha ma'lumotnoma.

**18.5. INDIKATOR**

**Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini qo'llash samaradorligi bo'yicha yillik tahliliy hisobot tayyorlangan va pedagogik kengashda ko'rib chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini qo'llash samaradorligi bo'yicha yillik tahliliy hisobotda qanday masalalar aks ettirilgan?

❖ Pedagogik kengashda yillik tahliliy hisobot yuzasidan qanday muhokamalar o'tkazilgan va qarorlar qabul qilingan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

✓ Yillik tahliliy hisobot.

✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

## **19-MEZON. Ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani**

***Izoh:** dars tahlillarining tashkil etilgani, uning samaradorligi va natijalaridan pedagoglar faoliyatini yaxshilashda foydalanilganligi baholanadi.*

**19.1. INDIKATOR**

**Rahbar va pedagog kadrlar tomonidan dars tahlillarini amalga oshirish bo'yicha reja-grafik ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ Rahbar va pedagog kadrlar tomonidan dars tahlillarini amalga oshirish bo'yicha reja-grafikni ishlab chiqishda qanday masalalar inobatga olingan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

✓ Dars tahlili reja-grafigi yuzasidan ma'lumot.

**19.2. INDIKATOR**

**Dars tahlilida ilg'or pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish usullari va baholash vositalari inobatga olingan hamda tahlil jarayoni turli usullar (maxsus shakl, cheklist, rubrika yoki boshqalar) asosida amalga oshirilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Dars tahlilida ilg'or pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish usullari va baholash vositalari qo'llanilganligi qanday tahlil qilingan?
- ❖ Dars tahlili jarayonida qaysi tahlil usullaridan foydalanilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Dars tahlili hisoboti.

### **19.3. INDIKATOR**

**Dars tahlili natijalari pedagoglar bilan individual yoki guruh shaklida muhokama qilingan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Pedagoglar bilan individual yoki guruh shaklidagi dars tahlili natijalari bo'yicha muhokamada qanday masalalar ko'rilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Muhokamalar bo'yicha ma'lumotlar.

### **19.4. INDIKATOR**

**Dars tahlili natijalari ta'lim sifatini ichki ta'minlash hisobotlariga kiritilgan va pedagogik kengashda ko'rib chiqilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Dars tahlili natijalari ta'lim sifatini ichki ta'minlash hisobotlarida qanday aks ettirilgan?
- ❖ Dars tahlili natijalari asosida tayyorlangan ichki sifat hisobotlari bo'yicha pedagogik kengashda qanday qaror(lar) qabul qilingan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

- ✓ Ta'lim sifatini ichki ta'minlash hisoboti;
- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

### **19.5. INDIKATOR**

**Pedagogik kengashda qabul qilingan qarorlarning bajarilishi monitoring qilingan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan va ijrosi nazorat qilingan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ Pedagogik kengashda qabul qilingan qarorlarning bajarilishi qanday monitoring qilingan?
- ❖ Monitoring jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan?
- ❖ Pedagogik kengash qarori asosida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi nazorati qanday amalga oshirilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Chora-tadbirlar rejasi;
- ✓ Chora-tadbirlar rejasi bo'yicha ma'lumot.

## V. INSON RESURSLARI YO'NALISHI

**Izoh:** ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini oshirish va strategik maqsadlarga erishish maqsadida pedagoglar, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlarning bilim, ko'nikma, tajriba hamda kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi tizimli boshqaruv faoliyati baholanadi.

### 20-MEZON. Ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning ma'lumoti, mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi va sifat tarkibi\*

**Izoh:** ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning ma'lumoti, mutaxassisligi, attestatsiyadan o'tganligi, malakasi ular o'qitayotgan fanlar mazmuniga, DTSda belgilangan malakalar va kompetensiya talablariga mos kelishi darajasi baholanadi.

#### 20.1. INDIKATOR

Fanlar bo'yicha asosiy shtatdagi pedagoglar mavjud hamda ushbu pedagoglarning diplomi (sertifikati) va malaka toifasi ta'lim yo'nalishiga mos keladi\*

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Fanlarni asosiy shtatdagi pedagoglar bilan ta'minlash bo'yicha qanday choralar ko'rilgan?
- ❖ Pedagoglarning diplomi (sertifikati) va malaka toifasi ta'lim yo'nalishiga mosligi qanday ta'minlangan?

**Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ Asosiy shtatdagi pedagoglar ma'lumotnomasi (obyektivka);
- ✓ Pedagoglarning diplomi (sertifikati) nusxasi.

#### 20.2. INDIKATOR

**O'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun oliy ma'lumotli pedagog kadrlar va amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan xodimlar mavjud**

***Yordamchi savollar:***

❖ Ta'lim tashkiloti o'quv jarayonini tashkil etish uchun oliy ma'lumotli pedagog kadrlar va amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan xodimlar bilan qanday ta'minlangan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Pedagoglar va xodimlar ma'lumotnomalari.

### **20.3. INDIKATOR**

**Pedagog kadrlar o'zining ixtisosligi bo'yicha qayta tayyorlash va (yoki) malaka oshirish kurslarini tamomlagan hamda diplomga (sertifikatga) ega**

***Yordamchi savollar:***

❖ Pedagoglarning o'z ixtisosligi bo'yicha qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kurslarida ishtiroki bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

❖ Qayta tayyorlash va (yoki) malaka oshirish kurslarini tamomlagan pedagoglarning diplom va (yoki) sertifikat(lar)i reyestri qanday yuritilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Pedagoglarni qayta tayyorlash va (yoki) malaka oshirish kurslariga yuborish buyrug'(lar)i;

✓ Pedagoglar diplom va sertifikat(lar)i.

### **20.4. INDIKATOR**

**O'rta maxsus ta'lim tashkilotida pedagog kadrlar attestatsiyadan o'tish lozimligi to'g'risida oldindan xabardor qilingan hamda ularning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash tashkil etilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Pedagog kadrlar attestatsiyadan o'tish lozimligi to'g'risida oldindan qanday tartibda xabardor qilingan?

❖ Pedagog kadrlarning mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash hamda oshirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Xabardor qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar;

✓ Pedagog kadrlarning mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash varaqalari va natijalari.

### **20.5. INDIKATOR**

**Pedagog kadrlarning mutaxassisligi bilan dars beradigan fanlarning o'zaro mosligi yuzasidan monitoring yuritilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Pedagoglarning mutaxassisligi dars beradigan fanlariga mosligi yuzasidan monitoring yuritish ishlari qanday amalga oshirilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Monitoring ma'lumotlari.

## **20.6. INDIKATOR**

**Monitoring natijalari asosida pedagoglarning diplomi (sertifikati), malaka toifasi va sohaviy tajribasiga mos fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib borishi ta'minlangan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Monitoring natijalariga ko'ra pedagoglarning diplomi (sertifikati), malaka toifasi va sohaviy tajribasiga muvofiq fanlarning dars mashg'ulotlarini olib borishi bo'yicha qanday choralar ko'rilgan?

***Asoslantiruvchi hujjat (lar):***

✓ Ko'rilgan choralar yuzasidan ma'lumot.

**21-MEZON. Ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarning belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani**

***Izoh:** pedagog kadrlarni ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va ishdan bo'shatish jarayonlarining amaldagi mehnat qonunchiligi va ichki tartib-taomillarga asosida tashkil etilganligi baholanadi.*

## **21.1. INDIKATOR**

**Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlari mehnat to'g'risidagi qonunchilik va o'rta maxsus ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari asosida amalga oshirilgan hamda ushbu jarayonlarga doir hujjatlar (tanlov hujjatlari, suhbat bayonnomalari, arizalar, buyruqlar yoki boshqalar) rasmiylashtirilgan**

***Yordamchi savollar:***

